

[4] – Бахрами, Мухаммад. Теоретики перевода / Коранические исследования. -Тегеран, лето 1394г.х. - С.224-232.

[5] – Беруни, Абурайхан. Сохранившиеся следы. Под ред.: Мухаммада Равшана. - Тегеран: Суруш, 1370. – 638 с.

[6] – Джамили, Рашид. Перевод на востоке исламского мира. Перевод Садыка Оинаванд. - Тегеран, 1385. - 185с.

[7] – Захидов Н. Арабоязычная литература персидско-таджикской литературы в VIII-IXвв. - Худжанд: Нури маърифат, 2004. - 402с.

[8] – Захидов Н., Хамрабаев Н. Переводческое движение в эпоху Саманидов / Энциклопедия Саманидов. Т.2. – Худжанд: Нури маърифат, 2009. - С.66-73.

[9] – Камрузи, Бадри. Каталог литературно-суфийских книг фонда книг и рукописей Дворца Гулистан. – Тегеран: Суруш, 1374. – 824 с.

[10] – Насриддин, Абдуманнон. Рудакӣ (разночтения, критика и рассмотрение сохранившихся произведений). - Худжанд: Рахим Джалил, 1999. -392 с.



HOZIRGI XITOY TILIDA GRADATSIYA HODISASINING NAMOYON BO‘LISHI

PhD. Adiba MAXAMADTOIROVA, TDSHU katta o‘qituvchisi, Toshkent, O‘zbekiston. Tel: +998 960-0623; Email: maxamadtoirova@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola hozirgi xitoy tilida qiyoslash konstruksiyalarida gradatsiya munosabatining ifodalanishiga qaratilgan bo‘lib, qiyoslash konstruksiyalari orqali gradatsiya hodisasi namoyon bo‘lsa, qanday usullar orqali amalga oshishi haqida yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: qiyos, taqqos, o‘xshatish, qiyosiy daraja, qiyos obykti, qiyos subyekti, konstruksiya, gradatsiya.

Аннотация. В данной статье речь идет о роли и месте известного турецкого писателя Умара Сайфиддина в турецкой новеллистике, особенно о переводах рассказов писателя на узбекский язык, достижениях узбекских переводов его рассказов и недостатках переводчиков в процессе художественного перевода.

Ключевые слова: сравнение, сопоставление, аналогия, сравнительная степень, объект сравнения, предмет сравнения, конструкция, градация.

Abstract. This article focuses on the expression of the gradation relationship in comparative constructions in modern Chinese, and explores the methods by which gradation occurs when comparative constructions occur.

Key words: compare, comparison, analogy, comparative degree, object of comparison, subject of comparison, construction, gradation.

Fanning rivojlanishi tadrijiy va uzluksiz. Bu jarayonda erishilgan yangiliklar oldingi ma’lumotlarni to‘ldiradi, o‘zgartiradi va hatto inkor


ham etadi. Lekin shunga qaramasdan, har qanday ilmiy yangilik o‘zidan oldingi ma’lumotlar, tushunchalarga asoslanadi. O‘z navbatida, u o‘zidan keyingi ma’lumotlarni, yangiliklarni paydo bo‘lishida ma’lum bir vosita, bosqich vazifasini o‘taydi. Natijada ilm-fanda miqdor o‘zgarishlari sifat o‘zgarishlari yuzaga kelishini ta’minlaydi.

Moddiy olam haqidagi barcha tasavvurlar inson ongining mahsulidir. Moddiy borliqning turli qirralari, jihatlari ilm-fanning xilma-xil sohalari tomonidan o‘rganiluvchi obyekt hisoblanib, insonlar orasida eng muhim aloqa vositasi sanaladigan til va nutq hodisalari va tilshunoslik fanining o‘rganish obyekti sanaladi.

Tilshunoslikda boshqa fanlardagi kabi bir-biriga zid ma’no yoki mazmun ifodalovchi tushunchalar mavjud. Bunda tushunchalar ifoda materialining ko‘lamiga va ifoda usuliga ko‘ra o‘zaro qarama-qarshi bo‘lgan ma’no, mazmun va fikrni yuzaga chiqarishi mumkin¹¹. O. Bozorov til birliklari o‘rtasidagi tadrijiy darajalanishni matematik tarzda manfiy va musbat qutblarga ajratib quyidagicha asoslaydi:

1-chizma

Til birliklari o‘rtasidagi tadrijiy darajalanish



Yuqoridagi chizma asosidagi misollar bilan uni tahlil qilamiz. Masalan:

1. 朋友跑得快 *péngyǒu pǎo dé kuài* – do‘stim tez yuguradi.
2. 妹妹跑得慢 *mèimei pǎo dé màn* *singlim* – sekin yuguradi.

Yuqoridagi misollardan ko‘rinib turibdiki, 快 *kuài* tez so‘zini musbat tarafga va 慢 *màn* sekin so‘zini manfiy tarafga joylashtiramiz. 0 esa o‘rtacha tezlikka to‘g‘ri keladi. Endi uning qanchalik tez yoki sekinligiga qarab musbat yoki manfiy tarafdagi raqamlar tomon siljiydi. Masalan, 更快 *gèn kuài* yanada tezroq 4, 5 ga joylashtirsak, 最快 *zuì kuài* eng tez musbat qutbdagi 6, 7 ga joylashtirishimiz mumkin. 比较快 *bǐjiào kuài* ham mavjud bo‘lib, u nisbatan tez degan ma’noni bildiradi va uni 3 ga joylashtirsak bo‘ladi. Tez esa musbat qutbdagi 1 raqamiga joylashdi. Xuddi shu joylashishni 慢 *màn* sekin so‘zida ham kuzatishimiz mumkin.

Mazkur misollarda to‘g‘ridan to‘g‘ri darajalanishni kuzatishimiz. Qi-yoslash konstruksiyalari orqali darajalanish namoyon bo‘lganda muayyan boshqa hukmning ifodalayotgan natijasiga nisbatan namoyon bo‘ladi. Ya’ni darajalanish me’yor hisoblangan 0 ga nisbatan emas balki taqqoslanayotgan obyektning natijasiga qarab darajalanadi. Masalan:

¹¹Базаров О. Ўзбек тилида даражаланиш: Филол. фан. д-ри. ... дисс. – Тошкент, 1997. – Б. 189.

苹果比葡萄重。西瓜比苹果更重。西瓜最重。 *Píngguǒ bǐ pútáo zhòng. Xīguā bǐ píngguǒ gèng zhòng. Xīguā zuì zhòng.*

Olma uzumdan og‘ir. Tarvuz olmadan og‘ir. Eng og‘iri tarvuz.

Mazkur misollardagi olmaning og‘irligi uzumga nisbatan darajalan-gan. Shuningdek, ayni vaqtda u tarvuzdan yengil. Shuning uchun o‘zi qi-yoslanayotgan narsaning natijasiga nisbatan olinadi. Umuman, qiyos eta-loni vazifasini, birinchi navbatda, obyektiv olam unsurlari bajarishi, shubhasiz. 汽车比自行车快。飞机比汽车更快。飞机最快。


Qìchē bǐ zìxíngchē kuài. Fēijī bǐ qìchē gèng kuài. Fēijī zuì kuài.

Mashina velosipeddan tez. Samolyot mashinadan tez. Eng tezi samolyot [3]. Ushbu misollarda velosipedning, mashinaning va samolyotning tezligi

Modomiki, ikki til birligi o‘zaro qarama-qarshi yo‘nalish kasb etgan ekan, ular o‘rtasida ham, albatta, o‘z mustaqil yo‘nalishiga ega birliklar bo‘lishi tabiiy. Bu birliklarning yo‘nalishlari tadrijiy ravishda bir tarafdin ikkinchi tarafga qarab og‘ib boradi. Oraliq, mo‘tadil nuqta (nol)dan o‘tadi va tugal bir qarama-qarshilik kasb etadi [1].

2-chizma

Til birliklarining tadrijiy ravishda bir tarafdin ikkinchi tarafga yo‘nalishi



Yuqoridagi chizmaga mos quyidagi misolni keltiramiz:

春天来了，上海的天气一天比一天暖和了。

Chūntiān láile, shànghǎi de tiānqì yītiān bǐ yītiān nuǎnhuole.

Bahor keldi. Shanxay havosi kundan kunga iliqlashib bormoqda [3].

Ya’ni havo harorati mo‘tadil 0 da turgan bo‘lsa, uning asta-sekinlik bilan sovib yoki isib borishi darajalanish bo‘lib, bundan oldingi holatdan musbat tomonga o‘zgarishi orqali ifodalangan: Shanxayning Shanxay-ning havosi kundan kunga 1 dan 2 ga, 2 da 3 ga qarab o‘zgarmoqda. Qiyoslanayotgan obyektning tezligiga nisbatan olingan.

Xitoy tilidagi qiyoslash konstruksiyalari ifoda mazmuniga ko‘ra uz-luksiz vaqt davomidagi va jarayon vaqtidagi darajalanish guruhlariga bo‘-linadi. Uzlüksiz vaqt davomidagi darajalanish chegaralanmagan vaqt ora-lig‘ida ma’noning bosqichma-bosqich kuchayib yoki pasayib borishini ifodalovchi [一...比一...+X], [...越来越+X], [...越发+X] konstruksiyala-ri vositasida voqelanadi.

Shunday qilib, darajalanishda jumladagi bir tushuncha ikkinchi tu-shunchadan darajaning ortiq yoki kamligiga ko‘ra farq qilishi bo‘lib, me’-

yor hisoblangan tushunchadan darajaning ortishi yoki kamayishi bo'lib, uning ikki turi farqlanadi: **Klimaks (ko'tarilish)**;

1) Antiklimaks (pasayish).

Miqdorning bosqichli o'zgarishi, uning ko'rsatkichlari tilda o'z ifodasiga ega va klimaks va antiklimaks shkalasini tashkil etadi. Bu haqda I.I.Turanskiy shunday yozadi: "Miqdoriy o'zgarishning har bir bosqichi o'lchov hisoblanib, shu asosda darajalanishning shkalasi belgilanadi. Bu shkala markaziy va ikki chetdagi a'zolarga ega. Markaziy a'zo – me'yor neytral tayanch holat. Ikki chetdagi a'zolar esa *klimaks* va *antiklimaks* deyiladi. Klimaks me'yordan yuqori ko'tarilgan, antiklimaks bo'lsa me'yordan quyi pasaygan holatdir" [2].

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

[1] – Базаров О. Ўзбек тилида даражаланиш: Филол. фан. д-ри. ... дисс. – Тошкент, 1997. – 272 б.

[2] – Трегубчак А.В. Семантика сравнения и способы ее выражения: Дисс. ...канд. филол. наук. – Рязань, 2008. – 221 с.

[3] –刘月化等著. 实用现代汉语语法. –北京: 商务印书馆, 2001 年. – 1005 页.



XITOIY TILIDA IJTIMOIIY MUROJAATLAR AKS ETGAN GENDER XOSLIKLAR MASALASI

Farzona NOROVA, TDSHU stajyor-o'qituvchisi, Toshkent, O'zbekiston

Tel.: +998972650456; E-mail: farzona.norova@yandex.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada ijtimoiy murojaatlar "Zamonaviy xitoy tili lug'ati" dan aniqlanib, o'zaro taqqoslanadi. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, ayollar va erkaklarga nisbatan qo'llaniladigan ijtimoiy murojaatlar orasida salbiy bo'yodkorlik ayollarga qo'llaniladigan murojaatlarda yetakchilik qiladi.

Kalit so'zlar: gender omili, ijtimoiy murojaatlar, tarjima, qiyoslash usuli

Аннотация. В данной статье рассматриваются социальные извлеченные из «Словаря Современного Китайского Языка» и проведено сравнение между ними. Исследование показало, что в женских социальных адресах больше слов с негативной эмоциональной окраской.

Ключевые слова: гендерный фактор, социальные обращения, перевод, метод сравнения

Annotation. The given article studies social addresses extracted from *Contemporary Chinese Dictionary* and carries out comparison between them. The research reveals that the negative emotional colouring dominates in female social addresses compared to men social addresses.